

World linguists on the concept and composition of text

Khushbek KHOLBAEV¹, Sevara MUKHTASAMOVA²

Samarkand State Institute of Foreign Languages

Tashkent State University of Law Samarkand Region Academic Lyceum

ARTICLE INFO

Article history:

Received October 2025

Received in revised form 5
October 2025

Accepted 10 November 2025

Available online 25

November 2025

Keywords:

text, author,
information,
recipient,
sign,
syntagma,
syntagmatics,
contact communication,
distant communication.

ABSTRACT

The main purpose of this article is to interpret the views of world linguists on the text and its content, as well as its perception as a source of communication, with the research of mainly European scholars being widely presented. If we accept the text as the main source of language communication, we notice that scholars mainly emphasize the connections between sentences within the text. For the information to be understandable and coherent, it is necessary to give importance to language codes. Linguists have emphasized that syntagmatics and its basic unit, the syntagm, require a good understanding in order to distinguish between textual coherence and its realization in pronunciation. The fact that sentences within the text are connected to each other like a tight thread creates relationships of both distance and contact.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss10/S-pp128-136>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Jahon tilshunoslari matn tushunchasi va tarkibi haqida

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

matn,
muallif,
axborot,
retsipiyent,
belgi,
sintagma,
sintagmatika,
kontakt aloqa,
distant aloqa.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi bu jahon tilshunoslarining matn va uning tarkibi, shuningdek uning muloqot manbai sifatida qabul qilinishiga oid fikrlari talqin qilingan bo'lib, asosan Yevropa olimlari izlanishlari keng berib o'tilgan. Matnni til muloqotining asosiy manbai sifatida qabul qiladigan bo'lsak, biz olimlar, asosan matn ichidagi gaplar orasidagi bog'lanishga urg'u berib o'tganligini payqaymiz. Ma'lumot tushunarli, izchil bo'lishi uchun til kodlariga ahamiyat berish zarur. Sintagmatika va uning asosi bo'lgan sintagma matn izchiligi va uni bir xil talaffuz qilishda farqlash uchun sintagmani

¹ Trainee teacher, Samarkand State Institute of Foreign Languages. E-mail: xushbekxolbayev@mail.ru

² Teacher, Tashkent State University of Law Samarkand Region Academic Lyceum. E-mail: muxtasamovasevara@mail.ru

yaxshi tushunish talab etilishini tilshunoslar ta'kidlab o'tgan. Matn ichidagi gaplar bir-biri bilan pishiq ip kabi bog'lanishi o'zaro distant va kontakt aloqalarni vujudga keladi.

Мировые лингвисты о понятии и структуре текста

Ключевые слова:

текст,
автор,
информация,
реципиент,
знак,
синтагма,
синтагматика,
контактная связь,
дистантная связь.

АННОТАЦИЯ

Основная цель данной статьи — интерпретация взглядов мировых лингвистов на текст и его содержание, а также на восприятие текста как источника коммуникации. В обзоре широко представлены исследования, преимущественно европейских учёных. Рассматривая текст как главный источник языковой коммуникации, можно отметить, что исследователи в основном акцентируют внимание на связях между предложениями внутри текста. Чтобы информация была понятной и последовательной, необходимо учитывать языковые коды и языковые средства связи. Лингвисты подчёркивают значение синтагматики и синтагматической организации высказывания: для различения связности текста и особенностей его реализации требуется чёткое понимание синтагмы и её функций. Связь предложений внутри текста, подобно натянутой нити, формирует как дистанцию, так и контакт между его элементами, обеспечивая целостность коммуникативного акта.

KIRISH

Buyuk olim Imom Abu Homid G'azzoliy ta'kidlab o'tganidek "Til insonga berilgan Alloh taoloning ne'matlaridan biridir. Til aslida kichik narsa bo'lsa ham, uning ahamiyati juda kattadir. Tilning harakat maydoni esa juda keng. Unga to'sqinlik qiladigan hech narsa yo'q".

Til aslida insonning jamiyatda o'z o'rnini egallashi uchun muhim vositasi sifatida u biror ma'lumotni yetkazish, yoki zarur xabarni olishi uchun faol muomalaga kirishadi va shu o'rinda o'zining tarkibiy qismlari bo'lmish so'z, gap va matnlardan keng foydalanadi. Demak biz matn haqida qisqa fikr yuritishimiz kerak Matn bu yonma-yon harflar, yozuv orqali aks ettirilgan nutq, umuman, nutq parchasidir. [1, b. 55]

ADABIYOTLAR TAHLILI

Jahon tilshunoslari matn va uning lisoniy mohiyatini ochib berish ustida keng ko'lamli tadqiqotlarini XX asrning 50-yillaridan boshlab keng amalga oshira boshladilar. Birgina "matn" tushuncha keyingi vaqtlarda rus, ukrain, fransuz, nemis, ingliz tilshunos olimlari tomonidan keng munozaralarga sababchi bo'lmoqda.

Rus tilshunosligida ham matn nazariyasi va lingvistikasi muammolari V.V. Odinson, I.R. Galperin, O.I. Moskalskaya, L.M. Loseva, Y.M. Lotman, Z.Y. Turaeva, N.D. Zarubina, E.V. Sidorov, O.L. Kamenskaya, A.I. Gorshkov, N.S. Valgina kabi ko'plab tilshunoslar tomonidan o'rganib kelingan [2, b. 3]


Turkiyshunoslikda matn masalasi muamolarini tadbiq etish birinchi bo'lib o'tgan asrning 70-yillari boshida taniqli tatar tilshunosi M. Zakiyev tomonidan ilgari surilgan. Nemis olimi R. Harvegning ta'kidlashiga ko'ra, matn tilshunosligining to'liq asoslanishi uchun hali kamida bir asrga teng uzoq vaqt talab etilishi mumkin. Shuningdek, taniqli fransuz tilshunosi R. Bart, chex olimi Kveta Kojevnekovalarning mulohazalari ham diqqatga sazovordir.

ASOSIY QISM

Rus tilshunosi **A.I.Belich** o'zining tilshunoslik fanlarining tasnifiga bag'ishlangan maqolasida til dalillari, ma'lumotlarini asosan grammatik qoidalar, qurilmalarga asoslanib ma'no yaxlitligi zahirida o'zaro bog'langan va ,albatta, ma'lum bir sintaktik – semantik uzviyligida aks etadigan gaplar tizimi, aniqrog'i ,ular zanjiriga asosiy e'tiborni qaratish kerakligini ta'kidlaydi.Binobarin, bu “matn” tushunchasining tilshunoslik maydonida gavdalanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga molik ekanligiga urg'u berib o'tib ana shunday gaplar zanjiridagi o'zaro munosabat va aloqalarni tilshunoslikning sintaksis bo'limida o'rganishning maqsadga muvofiqligini ta'kidlagan[11, b. 22]

Fransuz tilshunos olim M. Arriv yuqorida keltirilgan fikrlarga qo'shimcha qilar ekan Diskurs, ifoda (recit) va ular orasidagi vujudga keladigan aloqani maydonga olib keladigan butunlikni matn deb qabul qilishni tavsiya etgan. U shuningdek verbal kommunikatsiya sistemalarining barchasi o'ziga xos va turlicha bo'lsa-da, ular uchun umumiy elementar kommunikativ zanjirni ajratish mumkin. Bu zanjirning asosiy komponentlari sifatida **muallif-matn-retsipiyent** ishtirok etadi. Agar shu komponentlardan birortasi ishtirok etmasa, kommunikativ akt vujudga kelmasligini u o'z qarashlarida qayd etib o'tadi.

Litvalik strukturalist semiotik Algirdas Greimas istalgan “**narrative-rivoyat**,” qurilmasini yarata oladigan hikoya grammatikasini ommaga tatbiq etar ekan[7, b. 12] U quyidagi uch turdagi sintagmalarni hikoya tarkibida tadqiq qildi: **syntagms performanciels – tasks and struggles** -*sintagmalar performansialz – vazifalar va kurashlar*; **syntagms contractuels – the establishment or breaking of contracts**-*sintagmalar kontraktlar – shartnomalarni o'rnatish yoki buzish*; **syntagms disjonctionnels – departures and arrivals**- *sintagmalar disjonctionnels – ketish va kelish*; Greimasning fikricha, yuqoridagi uchta asosiy juft qarama-qarshilik barcha hikoya mavzulari uchun xarakterlidir. Qiziq tomoni shundaki, hikoyadagi harakatlar va uning qahramonlarini (umumiy qilib “ **actants**- aktantlar” deb ataydi), ya'ni “**subject/object** - *jo'natuvchi/qabul qiluvchi*”. **subject** – izlayotgan kishi; **object**- qidirilayotgan narsadir. Yuboruvchi obyektни yuboradi va qabul qiluvchi mazkur obyektning asosiy maqsadidir. Ko'pincha yordamchi hikoyadagi ish harakatlar bajarilishiga ko'maklashadi va o'z navbatida raqib uni maqsadiga qarshi chiqishga urinadi.



Mazkur jadval yuqorida berib o'tilgan fikrni mantiqiy asosi ekanini ko'rmiz. Keling, shu o'rinda o'zimiz bir kichik matnni shu tushunchaga yaqin shaklda tahlil qilamiz.

Imagine parents went to school in order to know about child's behavior as well as learning process and they were informed by teacher like this: “Tom hardly makes mistakes while speaking foreign languages and he is being appreciated amid the school society, for the sake of his fast assimilating” peculiarities Faraz qilaylik, ota-ona farzandi tarbiyasi, o'zlashtirishini bilish maqsadida maktabga keldi va o'qituvchidan quyidagi ma'lumotni oldi. “Tom chet tilida so'zlashishda deyarli xatolarga yo'l qo'ymaydi va u juda tez o'rganish xususiyati tufayli maktab jamoasi tomonidan juda qadrlanadi”.

Mazkur parchani biz grammatik jihatdan ko'chirma gap deb talqin qilamiz, lekin bu nutqiy sathda matn sifatida tushuniladi. Shu o'rinda olim M. To'xsanovning talqini bo'yicha, tilshunoslar tomonidan tekst (matn) termini tor va keng ma'noda ishlatiladi. Tor ma'noda tugal fikr anglatuvchi bir (ba'zan) yoki bir necha gapdan iborat bo'lgan jumla tushunilsa, keng ma'noda qissa, roman, gazeta, jurnal maqolasi, ilmiy monografiya, turli hujjat va hokazolar nazarda tutiladi. Bulardan birinchisi mikrotekst, ikkinchisi makrotekst deb ham ataladi. [4, b. 17]. Demak yuqorida berilgan o'qituvchi xulosasini bimalol matn deb qabul qila olamiz, chunki u bir nechta gaplardan iborat va asosiy maqsadi Tomni tasvirlashdan iboratdir. Mazkur vaziyatda O'qituvchi (teacher) muallif (sender) uni ijobiy o'zlashtirishiga oid ma'lumot – matn (message)

Yuqorida ta'kidlab o'tilgandek, istalgan nutqiy kommunikatsiyaning paydo bo'lishi, voqelanishi zamirida uch asosiy element qatnashishi kerak, ular turlicha nomlanishi mumkin so'zlovchi, muallif (yozuvchi) – axborot (matn) – tinglovchi, qabul qiluvchi, suhbatdosh (o'quvchi). Aynan shu vaziyatda, nutqiy kommunikatsiyada nutqiy sharoit, (channel) axborot kanali (ovoz, yozuv, magnit yozuvi, telefon kabi), muloqot qiluvchilar maqomi, yoshi va yana turli belgilari, shuningdek, boshqa bir nechta g'ayrilisoniy vositalarning ham ta'siri mislsiz hal qiluvchi o'ringa ega. Zero biz keltirib o'tgan misol muayyan gapdan katta va oz' navbatida ma'no jihatdan bir nechta gaplar jamlanmasidir.

Gapdan katta birliklar haqida gap ketar ekan, "gaplarning hamkorligi" masalasida ulkan ishlar amalga oshirgan nemis tilshunosi K.Boost asosan gaplar o'rtasidagi aloqalarni struktural shakllantiruvchi leksik takror, artikl, olmoshlar, ellipsis, fe'l zamonlari, takror bog'lovchilar, so'roq so'zlar kabi eng muhim vositalarni tadqiq etgan ishida U shunday yozadi: "Bir gapdan boshqasiga tortilgan iplar shu qadar ko'p va shunday pishiq to'rni hosil qiladiki, gaplarning chatishishi, ularning yagona to'r sifatida o'rib to'qilganligi haqida gapirish mumkin, chunki har bir alohida gap boshqalari bilan chambarchas. bog'langan". [5, b b. 5,6]

Bu fikrlar o'z navbatida matn sintagmatikasi masalasi yuzaga chiqishiga turtki bo'ladi chunki o'zaro, izchil bog'lanishda va barcha so'zlar, qolaversa, gaplarni ma'lum bir fikr chizig'ida tortilishi bu muallifdan katta ijodkorlikni talab etadi. Zero, istalgan o'quvchi tartibli matnni afzal ko'radi, chunki unda tushunish jarayoni yengillashadi.

Keyingi vaqtlarda matn sintagmatik tahlil jahon tilshunosligida juda ko'p muhokamaga sabab bo'lmoqda. Sintagmatik tahlilning eng asosiy vazifasi bu istalgan gapning yoki biror bir so'zning semantik tuzilishiga, joylashishiga, aniqrog'i, har bir elementni, sintagmani nutq kontekstiga mos ravishda pishiq ip kabi kirib borishini o'rganishdir. shuningdek, mazkur qator bo'lib tizilish nutq mazmuniga hamroh bo'lgan semantik va stilistik nyuanslarni aniqlashdan iboratdir. Keling quyidagi misollarga nazar tashlaymiz:

Внезапно, / среди глубокой тишины, / при совершенно безоблачном небе, / налетел такой порыв ветра, / что сама земля, казалось, затрепетала под ногами

To'satdan, / chuqur sukunat o'rtasida, /, shunday shamol esdiki, yer oyog'i ostida titrayotgandek bo'ldi... (I.S. Turgenev. Bulq suvlari). (7)

Ushbu jumlada yoki kichik matnda quyidagicha bo'linishlar mavjud. Aniqrog'i, beshta ajralib turgan sintagma bor bo'lib, ular leksik va grammatik hajmida bir xillik kasb etmayapti: masalan birinchisi jumla a'zosining alohida vazifasini yagona bir so'z bajarmoqda, o'z navbatida ikkinchi va uchinchilari oddiy va murakkab iboralarni o'z ichiga qamrab olgani bilan e'tiborli bo'lsa, shularga monand tarzda to'rtinchi va beshinchilari muayyan gaplarga tengdir.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish kerakki istalgan bilish jarayonini, biror bir xabarning dekodlanishi deb tasavvur etish mumkin. Aynan shu mulohazada, tushunish, bilish jarayoni matnda aks ettirgan ma'lumotni qabul qilish, ya'ni matnda tashilgan axborotni tahlil qila bilishdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan, bilish jarayoni quyidagi momentlarga bo'linadi: xabarni qabul qilish; kodni tanlash (yoki ishlab chiqish); matn va kodni solishtirish. Bunda xabarda ma'no tashuvchisi bo'lgan tizimli elementlar ajratiladi. [3, b. 75] Demak, tizimlilik yoki matn sintagmatikasi berilgan axborotni tahlil qilishda juda zarurdir. Biz yuqorida keltirilgan kichik matn misolida unda mavjud bo'lgan sintagmatik va sintaktik birliklarni tahlil qilamiz.

Tom chet tilida so'zlashishda deyarli xatolarga yo'l qo'ymaydi va u juda tez o'rganish xususiyati tufayli maktab jamosi tomonidan juda qadrlanadi.

Mazkur kichik matnada axborot Tomni yaxshi bilim egasi ekanligida bo'lib uni tarkibida quyidagilar mavjud:

2ta ega kesim predikativligi -

U qadrlanadi.

U yo'l qo'ymaydi.

4ta sintagma:

chet tilida so'zlashishda / deyarli xatolarga yo'l qo'ymaydi

juda tez o'rganish xususiyati tufayli / maktab jamosi tomonidan qadrlanadi

Shu joyda sintagma haqida qisqacha ma'lumot berib ketish o'rinli.

Azim Hojiyevning "Tilshunoslik terminlarinin izohli lug'ati" nomli kitobida

Sintagma (yunonchadan tarjima qilinganda birlashgan narsa) Nutqning mazmun va ritmo-melodik jihatdan bir butunlikni tashkil etuvchi semantik birligidir. Sintagma bir yoki undan ko'proq so'zdan iborat bo'lishi, hatto gapga teng bo'lishi mumkin. Masalan: "Jamoamiz/ paxta planini/muddatidan ilgari/ oshirib bajardi"

Mazkur gap tarkibiga qarab chiqar ekanmiz bu bo'linishlar mazmun va ritmo melodik jihatdan paydo bo'lganini anglaymiz demak biz asosan barcha ma'lum maqsadlar uchun jamlangan birliklarni alohida talafuz etishimiz kerak ekan. Shu o'rinda ularga savol berish orqali ajrata olishimiz mumkin. "Jamoamiz- **kim?** / paxta planini- **nimani?**, **qanday planni?** /muddatidan ilgari-**qachon?** /oshirib bajardi **qanday bajardi?**"


Sintagmatika. Til birliklarini nutq zanjiridagi unsurlar sifatida tekshirish aspekti deb qabul qilinadi.

Keling, sintagma tushunchasiga yana chuqurroq qaraymiz va bu joyda Shvetsariyalik olim Ferdinand De Sossuening go'yalaridan boshlash o'rinli. U tilshunoslikka **sign-signifier-signified** –*belgi-belgilovchi-belgilangan* tushunchani olib kirdi va barcha til elementlarini shu asnoda tahlil qilishni taklif qildi. Mana bu rasmda biz anglashimiz mumkin: **tree-daraxt** so'zining **signifier** shakli uning asl shakli bo'lsa **signified** shakli uni ongimizda aks etishidir. [12]



Sossuer “**signs-belgilar**” tushunchasining eng kichik elementi sifatida u *soʻzni* oladi va shu sababli u *soʻz yolgʻiz*, ajratilgan holatda kelsa, muayyan maʼno bermaydi, deb ularni biror bir sistemaga, birlikka yigʻadi bu birikishda grammatika muhim oʻrin tutadi. Buning natijasida *sintagma* paydo boʻladi. Oʻz navbatida sintagmalar birin-ketin joylashib, sintagmatik qator yaratadi. Struktura, yani matn tuzilishi mohiyatiga qiziquvchi olimlar, asosan, matnda qatnashayotgan elementar tarkibiy qismlarni – uning sintagmalarini topishga intiladi. Chunki sintagmatik munosabatlarni tahlil qilish zamirida konventsional yoki “birlashma qoidalari” aniqlanadi.

Matnlarni yaratish va sharhlash (masalan, til grammatikasi) jarayonida sintagmalardan foydalanish matn ichidagi tuzilishni osongina oʻrganishga qoʻl keladi. Sintagmatik qurilmaning, balki, ommabop koʻrinishi va tilshunoslar tadqiqotlarda ustunlik beradigan hikoyani muhokama qilishdan oldin, quyidagi sintagmatik shakllar borligini eslatib oʻtishimiz lozim. “**Narrative**” – *Hikoya* ketma-ket (va sabab-oqibat) munosabatlarga koʻproq tayanadi, buni kino va televidenie hikoyalari, ertaklar, ketma-ketligida asoslab koʻrsata olamiz, ammo biz fazoviy munosabatlar zamiridagi sintagmatik shakllar ham bor ekanligini unutmasligimiz kerak (masalan, plakatlar va fotosuratlardagi montaj, ular yonma-yon joylashtirish orqali ishlaydi) shuningdek, hikoya, aniqrogʻi, matn mazmunini belgilaydigan **conceptual-konsepsiya**, *gʻoyaga* asoslangan munosabatlarni (masalan, ekspozitsiya yoki argumentda qarab chiqishimiz kerak. Keling, mana bu chizmaga eʼtibor qarataylik. [7, b. 58]



Mohiyatan ketma-ketlikni ifodalovchi sintagmatik birliklarning asosi sifatida “**after**”-*keyin*, “**before**”-*oldin* kabi predloglar, shuningdek, “**Then**”-*keyinchalik*, “**next**”-*navbatdagi* kabi va boshqa “**conjunctions**”-*bogʻlovchilar* shuningdek baʼzan *infinitivli* birikmalar kirsafazoviy kenglik, joyni ifodalovchi sintagmatik munosabatlarga asosan quyidagi predloglar kiradi:

• above/below, • in front/behind, • close/distant, • left/right (which can also have sequential significance), • north/south/east/west, and • inside/outside (or centre/periphery).	• <i>yuqorida/pastda,</i> • <i>oldda/orqada,</i> • <i>yaqin/uzoq,</i> • <i>chap/o'ng (bu ham ketma-ket ma'noga ega bo'lishi mumkin),</i> • <i>shimol/janub/sharq/g'arb va</i> • <i>ichkarida/tashqarida (yoki markaz/chekka).</i>
--	--

Shu o'rinda g'oya, ma'no kasb etishi uchun Sossuer aytib o'tgan **“signs-belgilar”** tushunchasining eng kichik elementi bo'lmish **so'zlarni yana bir tushuncha ostida birlashtirish talab etiladi.** Uni fanda **linguistic codes -tilshunoslik kodlari deb ataladi.** Keling, bu tushunchaga qisqa to'xtalib o'tamiz: **linguistic codes -Lingvistik kod** bu o'z ichiga til tizimlari va birliklarini olib, ular yordamida muayyan til qoidalarga amal qilgan holda ma'lum bir ma'lumot va xabarlarini muvaffaqiyat bilan yaratadi va ularni ko'zlangan manzilga (**recipient-qabul qiluvchiga**) yetkazish maqsadida kombinatsiyalar hosil qiladi. Albatta, mazkur **linguistic codes -Lingvistik kodlarini** yaratuvchi barcha birliklar ma'lumotlar almashinuvini samarali bajara olishi uchun semantik shaklda talqin etilishi talab etiladi. **Linguistic codes -Lingvistik kodlari** quyidagi guruhlariga bo'linishi mumkin [13].

Linguistic codes	
Natural communication code: that which is perceived through the senses of hearing and sight: gestures and non-verbal communication.	Tabiiy aloqa kodi: bu turdagi kodlar asosan eshitish va ko'rish kabi sezgi organlarimiz yordamida anglab etilgan tushuncha bo'lib, u imo-ishoralar va og'zaki bo'lmagan muloqot orqali ham amalga oshadi.
Written communication code: it is perceived by reading; therefore, prior learning is required; They constitute a closed system in itself.	Yozma aloqa kodi: bu turdagi kodlar ularni aniqlash uchun ma'lum bilim, oldindan o'zlashtirilgan tushuncha talab etadi, chunki u o'qish orqali qabul qilinadi. Ular yana o'z-o'zidan yopiq tizimni yaratishi mumkin.

Sossuer asosan til va uning umumiy kodlari ustida ishlagan bo'lsa-da, u albatta, mazkur belgilar o'zaro, bir-biriga bog'liq holatda o'rganilganda ma'no kasb etishini ta'kidladi. Bu fikr boshqa bir tilshunos strukturalist Praga tilshunoslik maktabi asoschilaridan biri hisoblanmish Roman Jakobson tomonidan qo'llab- quvatlandi, Uning ta'kidlashicha, matnlarni yaratish va uni tahlil qilish kodlar yoki konventsionalarning mazkur matn tarkibida qatnashganligiga bog'liq (Jakobson 1971). Istalgan belgi, aniqrog'i tilshunoslik elementi (leksema) beradigan ma'no u joylashgan kodga, tizimga uzviy bo'lganligi sababli, kodlar asosiy mazmun anglatuvchi ramka vazifasini bajaradi. **Linguistic codes-Lingvistik kodlarni** quyidagi jadvalda berilgan gaplar orqali tushuntirishga urinib ko'ramiz.

Quote-gap	Code-til kodi	Sub-category-kichik turkum	Category-turkum
“I feel I have some gifts to share” (Luke)- Menda baham ko'ra oladigan sovg'a(intelektim) borligini anglab yetyapman	Applying knowledge and skills- Bilim va ko'nikmalarni taqdim etish	Wanting to make a difference- Farq qilish istagi	Motivate to volunteer- Ko'ngilli bo'lishga undash

"If I can help one person I am happy" (Carl)- Agar menda istalgan bir odamga ko'maklashish imkonim bo'lsa, men mamnunman.	Helping and bringing happiness- Ko'maklashish va bu orqali baxt olib kirish		
"I love teaching people about CP"(Emma)- Men insonlarni CP to'g'risida o'qitishdan mamnun bo'laman.	Educating others- Boshqalarga ta'lim berish		
"I enjoy contributing to society and things around me"(Glen)- Men jamiyat va atrofimni o'rab turgan narsalarga o'z hissamni qo'shishdan rohatlanaman.	Community responsibility- Jamiyat mas'uliyati		

Mazkur jadval orqali shuni anglash mumkinki, gaplar biz aytib o'tgan til kodi orqali birikadi. [14] Ikkinchi gapga e'tibor bering "If I can help one person I am happy" (Carl)- "Agar menda istalgan bir odamga ko'maklashish imkonim bo'lsa, men mamnunman" bu gapda ikkita sintagma, ikkita ergashgan qo'shma gap va bir nechta leksemalar bor bo'lib ularning umumiy mazmuni bu- yordam va baxtga tengdir.

XULOSA

Xulosa o'rinda mukammal matn qanday talablarga javob berish kerak degan savol doimo munozaralar markazida bo'ladi. Ko'plab olimlar bu ustida izlanishlar olib brogan jumladan V. Dressler hamda R.A. de Bograndlar matnning mavqei uning quyidagi yetti kategorial belgiga ega bo'lishi bilan belgilanadi, deb hisoblaydilar:

1. koheziya – matn bo'laklarining grammatik, leksik, ritmik, grafik vositalar yordamida birikishi;
2. kogerentlik – matn qismlarining semantik-mantiq munosabatlar (sabab-oqibat, referentativ, zamon-makon) negizida bog'lanishi;
3. intensionallik – matn strukturaviy va ma'noviy yaxlitligining kommunikativ maqsad bilan bog'liqligi;
4. adresatlik – axborotni uni qabul qiluvchining ijtimoiy mavqeyi, ruhiy holati kabi xususiyatlarini inobatga olgan holda uzatish (boshqacha aytganda, retsipient tanlovi);
5. informatiklik – uzatilayotgan axborotning adresat uchun muhimligi yoki yangilik darajasi;
6. situativlik – matn mazmuniy va strukturaviy qurilishining kommunikativ sharoit, vaziyat bilan bog'liqligi;
7. intertekstuallik – ma'lum turdagi matn tarkibida invariant mazmun-ma'noning qayta yaratilishi. [2, b. 36]

Shu fikr asosida quyidagi kichik matnni tahlil qilib ko'ramiz.

Shamol sharqdan esdi deguncha o'zi bilan akula korxonasining qo'lansa hidini olib kelardi, ammo bugun hid deyarli sezilmas, chunki shamol shimoldan esa boshlab, ko'p o'tmay, butunlay tingan edi. Shuning uchun ham Terras serquyosh va so'lim edi." (Ernest Xeminguey)

1. Zamonlar bir xil; olib kelardi, sezilmas, bog'lovchi mavjud; ammo, shuning uchun.
2. Joy makon; akula korxonasi, Terras serquyosh va so'lim, korxona sababli hid.
3. Bog'lovchilar bilan; ammo bugun, shuning uchun ham, serquyosh va so'lim.
4. Istalgan o'quvchi uchun joyni tasvirlash maqsadida yozilgan.

5. Xabar, ma'lumot akula korxonasi joylashuvi, uni salbiy ta'siri, shu joyni so'limligi.

6. Demak, bu shahar dengiz bo'yida ajoyib tabiat qo'ynida joylashgan (mantiqiylik akula korxonasi)

7. Matn gaplar joyini almashtirish orqali qayta jonlantirilishi mumkin.

Shimol shamolida Terrasni serquyosh va so'limligiga yaqqol namoyon bo'la oladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Азим ҲОЖИЕВ Ўзбекистон Республикаси ФА академиги
2. “ТИЛШУНОСЛИК ТЕРМИНЛАРИНИНГ ИЗОҲЛИ ЛУҒАТИ”
3. ТОШКЕНТ «ЎЗБЕКИСТОН МИЛЛИЙ энциклопедияси» ДАВЛАТ ИЛМИИ НАШРИЕТИ
4. M. Qurbonova, M. Yuldashev “Matn tilshunosligi” Toshkent “Universitet” 2014
5. Лотман Ю.М. Структура художественного текста. –М.: Искусство, 1970; Лингвистика текста. Материалы научной конференции. Ч. I, II. -М., 1974;
6. Тухсанов М. Микротекст и система средств выражения его когерентности в узбекской художественной речи (замена и повтор). АКД. – Ташкент, 1987.
7. Москальская О.И. Грамматика текста. –М.: Высшая школа, 1981.
8. H. JAMOLXONOV HOZIRGI O ‘ZBEK ADABIY TILI O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi oliy o‘quv yurt lari uchun darslik sifatida nashrga tavsiya etgan Toshkent «Talqin» nashriyoti. 2005- v
9. SEMIOTICS THE BASICS SECOND EDITION Daniel Chandler Routledge is an imprint of the Taylor & Francis Group, Second edition 2007
10. EXAM SKILLS FOR TEACHERS AND LEARNERS OF ENGLISH Komil Djalilov Toshkent Turon Zamin Ziyos 2016
11. “Gerard Genette and the Categorization of Textual Transcendence” Sayyed Ali Mirenayat PhD candidate in English Literature, Faculty of Modern Languages and Communication, Universiti Putra Malaysia Mediterranean Journal of Social Sciences MCSER Publishing, Rome-Italy Vol 6 No 5 September 2015
12. “INTRODUCTION TO THE THEORY OF INTERTEXTUALITY: HYPERTEXTUALITY AND METATEXTUALITY FROM A DIFFERENT PERSPECTIVE” Riyadh Abdurahman Manqoush, Ph.D Professor of English Literature, English Language Department, College of Arts & Languages, Seiyun University, Yemen EPRA International Journal of Multidisciplinary Research (IJMR) – March 2024|| Journal DOI: 10.36713/epra2013 || SJIF Impact Factor 2024:
13. 1947. Вестник МГУ, 1947, N 7, с. 22
14. https://studme.org/339996/literatura/sintagmaticheskiy_analiz_predlozheniya
15. <https://media-studies.com/saussure/>
16. <https://www.technologycomics.com/communication-code-meaning-and-types/>
17. https://www.researchgate.net/figure/Codes-subcategories-and-categories-in-nonverbal-interaction-between-SWD-and-SWOD_tbl4_371683219